

Yashar Kamol asarlaridagi folklor unsurlari, ramzlar va ularning tarjimalarda berilishi

Shodmonova Dilfuza

TDSHU, 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik tarjimashunoslik ixtisosligi 2-kurs tayanch doktoranti, Toshkent. O‘zbekiston. Tel +998998440094, E-mail: d.shodmonova@icould.com

Annotatsiya

Jahon adabiyotining tarkibiy qismi hisoblangan turk adabiyotida Yashar Kamol ijodi alohida o‘rin tutadi. Uning roman va qissalari, hikoya va she‘rlarida milliy turmush manzaralari, turk qishloqlaridagi kishilar qiyofasi realistik aks ettirilgan. Adib asarlari dunyodagi juda ko‘p xalqlar tillariga tarjima qilingan va millionlab kitobxonlarning ma‘naviy mulkiga aylangan.

Kalit so‘zlar: Yaşar Kemal, folklor unsurlari, ramzlar, simbolizm, adabiy tarjima, madaniy kontekst, turk adabiyoti, o‘zbek tiliga tarjima, milliy identitet

Annotation

Yaşar Kemal's works hold a special place in Turkish literature, which is an integral part of world literature. His novels, stories, and poems realistically depict national lifestyle scenes and the characters of people in Turkish villages. The author's works have been translated into many languages and have become the spiritual heritage of millions of readers around the world.

Keywords: Yaşar Kemal, folklore elements, symbols, symbolism, literary translation, cultural context, Turkish literature, translation into Uzbek, national identity

Аннотация

Творчество Яшара Кемала занимает особое место в турецкой литературе, которая является составной частью мировой литературы. В его романах, повестях, рассказах и стихах реалистично изображены сцены национального быта и образы людей в турецких деревнях. Произведения писателя переведены на множество языков и стали духовным достоянием миллионов читателей по всему миру.

Ключевые слова: Яшар Кемаль, фольклорные элементы, символы, символизм, литературный перевод, культурный контекст, турецкая литература, перевод на узбекский язык, национальная идентичность

Adib xalq, og‘zaki ijodi namunalarini ixlos va e‘tibor bilan to‘plagan, asarlarida folklor syujetidan samarali foydalangan. Uning ijodida qishloq hayotining betakror ko‘rinishlari, turk tilining rang-barangligi, boyligi, turklarning milliy xarakteri yorqin namoyon bo‘ladi. Yozuvchi gumanist ijodkor sifatida mavjud voqelikni butun murakkabliklari bilan ko‘rsatish orqali umumbashariy qadriyatlarni, ezgulik uchun kurash g‘oyalarini ulug‘laydi. Shu boisdan Yashar Kamol asarlari jahon badiiy tafakkurini boyituvchi adabiy-estetik hodisa sifatida turli millat ijodkorlari va kitobxonlari nazariga tushgan.

Folklor san‘atining turk nasridagi ko‘rinishi Yashar Kamol ijodida barqaror uslubiy tamoyil sifatida namoyon bo‘lgan. Yashar Kamol turk xalq og‘zaki ijodini, xalqning milliy yashash tarzini mohir tasvirlab bergan ijodkordir. Xalq og‘zaki ijodiga xos elementlarning muayyan adib yaratgan badiiy asar matndan o‘rin olishi o‘sha asarning badiiy-estetik qiymatini oshiradi. Folklor unsurlarining Yashar Kamol ijodida keng o‘rin egallaganligi adib dunyoqarashi, bilim darajasi, tafakkur va tasavvur olamining kengligidan, ko‘lamdorligidan dalolat beradi.

“Sevgi afsonasi” romanida ko‘plab afsonalar bilan bog‘liq o‘rinlarga duch kelamiz. Yozma badiiy adabiyot har doim xalq og‘zaki ijodidan bahramand bo‘lgan, undan ta’sirlangan, o‘sha asos tufayli badiiy-estetik jihatdan boyigan. Dunyo adabiyoti durdonalari ichida bunda istagancha misol topiladi. Ma‘lum bir yozuvchining alohida asarini shu ilmiy tamoyil negizida o‘rganish juda muhim ahamiyatga ega, albatta. Yashar Kamolning xalq og‘zaki ijodi sarchashmalari bilan sug‘orilgan “Sevgi afsonasi” romani ana shu jihatlari bilan e‘tiborga loyiqdir. “Ot – murod”, – deydi dono xalqimiz. “Sevgi afsonasi” romanining muqaddimasida tog‘lik jasur yigit – Ahmadning eshigiga kelgan ot ham uning murodi, qismati ekanligi asar davomida anglashiladi.

Qahramonlik tipidagi xalq dostonlarida jangovar ot obrazi bosh qahramon darajasiga ko‘tarilgan asosiy obrazlardandir. Inchunun, Alpomish, Go‘ro‘g‘li, Manas kabi qahramonlarni ularning doimiy hamrohi – otsiz tasavvur etish qiyin. “Sevgi afsonasi” romanida ham voqealar rivoji bevosita ana shu obraz zamirida



yuzaga kelgan. Yashar Kamol bu obrazga xalq dostonlarida bo‘lganidek katta “yuk” yuklaydi.

Avvalo, ot tasviriga e’tibor beraylik: “Otning ustida kumush bezakli, naqshinkor, cherkes ustalar yasagan bir egari bo, uzangasi naqsh solingan kumushdan yasalgan. Otning oltin suvi yurgizilgan jilovi egarning oltin, sadaf qadalgan qoshiga ildirib qo‘yilgan” (SA.2021, 8). Ot anjomlarini tasvirlashda qo‘llanilgan bunday sifatlashlar dostonlarimizdagi ot anjomlari tasviriga har jihatdan yaqin. Bir misol:

Uzangisi o‘yma oltin,
Quyushqoni quyma oltin.
Egarining qoshi oltin,
Turmushining bari oltin¹.

Ot anjomlarining oltin, kumush, sadaf bilan bezatilgani, bir jihatdan bu otning oddiy emas balki og‘zaki ijodda bot-bot takrorlanuvchi “nazarkarda”, “yulduzni ko‘zlovchi” zotdor ot ekanligiga ishora qilsa, boshqa jihatdan turkiy xalqlarning otga bo‘lgan munosabati, hurmat – ehtiromi haqida ham tasavvur hosil qilishda yordamchi komponent vazifasini o‘taydi.

Tarihiy manbalarning guvohlik berishicha, turkiylar otni shu qadar e‘zozlashganki, unga oilaning bir a‘zosi sifatida munosabatda bo‘lishgan². Gerodot, Strabon kabi tarixchilarning asarlarida yuqoridagi fikrlarimizni tasdiqlovchi faktlar mavjud. Jumladan, O‘rta Osiyo yerlari qimmatbaho ma‘danlarga boy bo‘lgani va O‘rta Osiyoliklar ot anjomlariga ana shular bilan bezak berganliklari qayd etiladi³. Binobarin, “Sevgi afsonasi”dagi ot anjomlari tasviri bilan bog‘liq, yuqoridagi lavha yozuvchi tomonidan shunchaki o‘ylab topilgan epitet, sifatlash emas, balki tarixiy haqiqatning asardagi badiiy ifodasi, deyishga asos bor. Ot anjomlaridagi quyosh, hayot daraxti tasvirlari ham turkiy ajdodlarning dunyoqarashidan darak beradi.

Ma‘lumki, turkiylarda quyosh daraxti tiriklik, oydinlik ramzi tarzida talqin etilgan. Shuning uchun ular qoyatoshlarga, terilarga, buyumlarga qabilalar o‘z tug‘lariga bularning rasmini solishgan. “Kigiz yoping‘ich ustidagi olovrang quyosh rasmining yonida baland, yam-yashil hayot daraxtining rasmi ham ko‘zga

¹ Ravshan: xalq og‘zaki iiodi. – Toshkent : YangiyurPoligraph Service, 2019, – B.28.

² Kafesoğlu İbrahim. Turk Milli Kültürü. – İstanbul: Boğaziçi Yayınları, 1988. – S.207.

³ Древние авторы о Средней Азии. – Ташкент: Гостехиздат, 1984. – С.110; Тилавов А. Ўзбек халқ дostonларидаги от образининг тарихий асослари ва бадий талқини. Филол. ф. номзод. дисс. ... автореф. – Тошкент: 2002. – Б. 10.



tashlanadi” (SA. 2021,9) deyiladi asarda. Asarda onomastika izlarini sezish qiyin emas. Ko‘pni ko‘rgan, tajribali So‘fiy otning bo‘yniga osilgan tamg‘adagi tasvirlarni ko‘rib qo‘rqadi. O‘tmishda ajdodlarimizda ba‘zi narsalarni xosiyatsizlik, baxtsizlik alomati tarzida irim qilish ishonchi bo‘lgan.

Ana shu jihatlari bilan Yashar Kamol talqinidagi ot obrazi turkiy xalqlar dostonlaridagi mifologik ot obraziga yaqin turadi.

Xalq orasida o‘ta ustamon, ishiga pishiq, insonlarga nisbatan “shayton”, “shaytonga dars beradi” kabi sifatlar ishlatiladi. “Yer yorilib kirib ketishgan bo‘lsa-da, topaman” deb oyoq, tirab turgan Poshshoga Kurt beklaridan biri Mulla Karim shunday deydi: “Poshshom, bu Girit tog‘ida biz bu odamlarni yana ming yil qidirsak-da, topolmaymiz. Bu tog‘liklar shunday yashirinadilarki, ularni shayton ham topolmaydi” (SA. 2021,58). Xalq, og‘zaki ijodi namunalarida ilm, hunar olishga targ‘ib qilinadi. Qahramonning komillik sifati tarzida uning ilmi, tajribali ekani alohida ta‘kidlanadi.

Xalq, og‘zaki ijodidan yaxshi xabardor bo‘lgan Yashar Kamol “Ogiritog‘i nolasi”da ana shu an’anani davom ettirgan. Asarda zolim, qahri qattiq ota sifatida gavdalangan hukmdor – Mahmud poshshoning aslida ilmi kishi ekanligi, hatto otasining Arzurum madrasasida tahsil olgani ilm ahliga xayrihoh, bo‘lgani, saroyga tez-tez olimlar, baxshilarni to‘plagan eslatib o‘tiladi (SA. 2021,24).

Mahmud poshshoning qizlari ta‘riflanayotganda: “Gulruh opalari orasida o‘qishga rosa qiziqar edi. Ahmadiy Xoniyning she‘rlarini yoddan bilar, otasining devonida bolaligidanoq, she‘r o‘qirdi. Otasi farzandlari ichida Gulruhni ko‘proq, yoqtirar edi” (SA. 2021,19), deyiladiki, bu ham poshshoning ilmga rag‘bati, munosabatini bildiruvchi lavhadir. Darvoqe, asar qahramonlari portreti tasvirida ham biz turk xalqining o‘sha davrlarga xos kiyinish madaniyati, milliy o‘ziga xosligi, axloq-odob mezonlari haqida qimmatli ma‘lumotlar olamiz.

Yashar Kamol Gulbahorning portretini shunday chizadi: “Gardanligi oltindan edi. Oyoq, bilaklariga Ogiritog‘ilik ayollar kabi oltin marvarid, zumrad halqalar taqardi” (SA. 2021,14). Bu o‘rindagi tasvirlar ham shunchaki badiiy tasvir vositalari emas, mavjud tarixiy haqiqatning asardagi badiiy ifodasidir. Chunonchi, tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, qadimda turkiy xalqlar yashagan hududlarda oltin, marvarid kabi qimmatbaho toshlar mo‘l bo‘lgan va bu ayollarning kiyinishida o‘z aksini topgan. O‘rta Osiyoda arxeologlar olib borgan qazilma ishlari natijasida topilgan ko‘plab qimmatbaho taqinchoqlar fikrimizning dalilidir.



Gulbahorning yana bir fazilati – uning usta chavandozligidir. Bizga ma’lumki, ajdodlarimizda nafaqat erkaklar, balki ayollar ham otga minish, uni tarbiyalash san’atini bilishgan. Gulbahorning otga mehri ham bo’lakcha edi. Binobarin, otasining oti haqidagi mojaro uni befarq qoldirmaydi. Bu voqeaning tafsilotlarini bilishga harakat qiladi, zindonga tushgan So’fiydan bu haqida tinmay savollar so’raydi. So’fiy: “Bu ot Ahmadga yodgordir. Haq uni Ahmadga yubordi. Ahmad otni hech kimga bermaydi. Bersa bo’lmaydi. Butun Og’ritog’i o’lsa o’ladiki, biroq ot berilmaydi” (SA. 2021,45) deydi.

Xalq ogzaki ijodi namunalarida, xususan, dostonlarda qahramonning o’z dardi, iztiroblari, niyatlarini soz chalib yoxud qiyofani o’zgartirib “aytish” detallari mavjud. “Sevgi afsonasi”da ham zindonband qilingan So’fiy Gulbahorga Og’ritog’i xalqining dardini sibizg’ada chalib aytadi

Turkiy xalqlar dostonlarida tez-tez uchrab turadigan mushtarak motivlardan biri – tutqunlik, zindon motividir. Zindonda qahramonning xarakteri, ruhiyati, fazilatlari yanada yaqqolroq namoyon bo’ladi. Zindonband So’fiyni huzuriga chaqirgan xon: “Ot kelmay, Ahmad kelmay, seni zindondan chiqarmayman”, – deydi. Shunda So’fiy: “Ot ham, Ahmad ham kelmaydi. Ot Ahmadga Haqdan yodgordir. Ahmad kelsa ham ot kelmaydi. Men ham Ahmadni senga keltirmayman” (SA. 2021,51), deya dadil so’zlaydi. Bu so’zlardan uning qat’iyatliliigi, irodasi mustahkamligi va do’stiga sadoqati namoyon bo’ladi. Xalq, dostonlarida zindon motivi bilan bog’liq xarakterli bir jihat bor. Zindonga tashlangan mahbuslarga hukmdorning qizlari yordam berishadi. Masalan, “Alpomish”da Alpomishga Qalmoq shohning qizi Tovkasoy bevosita yordam bersa⁴, “Dada Qo’rqut”da Tamanin qal’asidagi bir quduqqa tashlangan Salor Qozonga hukmdor Takurning xotini yordam beradi⁵. Folklorshunos Jabbor Eshonqulov qahramonlarning tutqunlik holati tasodifiy bo’lmay, bu ularning tug’ilishidanoq taqdiriga bitilgan alplik maqomiga erishuvdagi navbatdagi sinov ekanini ta’kidlaydi⁶. Ushbu fikrni ma’lum ma’noda “Sevgi afsonasi”dagi tutqunlik epizodiga ham tadbiiq etish mumkin. Chunki So’fiy ham Ahmad ham zindonga tushib nochor qolishganda ham tushkunlikka tushmaydilar, qarorlarini o’zgartirmaydilar, o’zlarini haqiqiy alplardek tutadilar.

⁴ Алпомиш. Айтувчи Фозил Йўлдош ўғли. – Тошкент: Шарк, 1998. – Б. 274.

⁵ Metin Ergün. Dede Korkut Kitabı. – İstanbul: Ebru Yayınları, 1980. – S.214.

⁶ Эшонқулов Ж. Фольклор: Образ ва талқин. – Қарши: Насаф нашриёти, 1999. – Б. 123.



J.Eshonqulovning fikricha, qahramonning tutqunligi, uning narigi dunyoga safari bo‘lib, qayta tug‘ilishi, bir maqomdan ikkinchi maqomga ko‘tarilishi kabi bir necha ramziy, mifologik ma‘no ifodalaydi. Biroq, “Sevgi afsonasi”dagi tutqunlik bilan bog‘liq, lavha ramziylikdan, mifologik talqindan ko‘ra ko‘proq, hayotiylik kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Alimov X. Tarjimon ruhiyati // Tarjima san‘ati (Maqolalar to‘plami). 6-kitob. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1985. – 258 b.
2. Хамидов Х.Х. Ўзбекчадан туркчага насрий таржима муаммолари. – Тошкент: ТДШИ, 2014. – 148 б.
3. Аминова Л. Турк ёзувчиси Я.Камол асарларида бадий маҳорат масалалари. – Тошкент, 2003. – 110 б.
4. Алпомиш. Айтувчи Фозил Йўлдош ўғли. – Тошкент: Шарқ, 1998. – Б. 274.
5. Metin Ergün. Dede Korkut Kitabı. – İstanbul: Ebru Yayınları, 1980. – S.214.
6. Эшонкулов Ж. Фольклор: Образ ва талқин. – Қарши: Насаф нашриёти, 1999. – Б. 123.

Research Science and
Innovation House

